

UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARNING TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH

Nigoraxon Mamajonova

Andijon davlat pedagogika instituti

O'qituvchisi

farhodbekmamajonov14@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi ilmga tashna avlodni bilimini mustahkamlash va milliy ona tilimiz ruhida tarbiyalash, Yangi O'zbekiston mutaxassis pedogok kadrlarining dolzarb masalasidir. Shundagini muallim ona tilimizga o'quvchini jalb qila oladigan va uni muhim ekanligini anglatadigan metodika yarata oladi. Yangi pedogogik texnologiyalar o'quvchini, ayniqsa, bitiruvchi sinflar tanlagan yo'nalishi doirasida pedogogik-psixologik yondashilgan holda ona tilimizni muhimlik darajasini oshirish muhimdir.

Kalit so'zlar: PISA, ta'lim standarti, tasavvur, zehn, tasavvuriy hodisalar, pedogogik-psixologik texnologiyalar.

Umumta'lim maktablarida yangi ta'lim texnologiyalarini o'quvchilarga taqdim etish, avvalo, o'quvchilarning o'ylash, tasavvur qilish, fikrlash bilan birga zehn qobiliyatlarini, ularning psixologiyasini chuqur o'rganishni talab qilmoqda. Bugungi kunda o'quvchilarning bilimlarini chuqur o'zlashtirish usullari bo'yicha tadqiqot olib borish, ularni mustahkamlash yo'llarini izlab topmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan va chet tillarini bilish zamon talabi hisoblangan bir muddatda, yoshlarning ongi va maqsadlarini to'g'ri shakllantirish, uni milliy ta'lim dasturlariga asoslangan holda tarbiyalash oliy maqsadimizdir. Umumta'lim fanlarini o'qitishning asosiy maqsadi shundan iboratki, o'quvchilarda fanlar bo'yicha egallangan bilim, ko'nikmalarni muloqot va hayotiy faoliyati jarayonida qo'llash malakasini shakllantirishga qaratiladi.²⁹ Chunki bugungi rivojlanayotgan davr o'quvchisi kundalik hayotda uchraydigan turli holatlarda o'zini erkin tuta olishi, fikrini tushuntira olishi, ommaviy axborot vositalaridan, ijtimoiy tarmoqlarda ko'rsatilayotgan lavhalarni o'rganib, o'zi uchun muhim bo'lgan manbalarni olishi, baxs-munozaralarda erkin ishtirok etishi, shaxsiy dunyoqarashi hamda fikrlarini ifoda eta olishi lozim sanaladi. O'quvchining qiziqish va imkoniyatlaridan kelib chiqib ma'lum fan doirasida, balki xorijiy tillarni bilish va o'rganish bosqichi doirasida ona

²⁹ Ahmedova G.M. Ilg'or pedogogik ijodkorlik manba – bu pedogogik tajribadir// Ta'lim texnologiyalari. 2010. № 5

tilimizni muhim hamda tillarni o'rganish asosi sifatida tushuntirish muhimdir. Uning muhimlik darajasini o'quvchilarga anglatgan holda dars tashkil etish texnologiyalarini tatbiq qilish o'rinli. Bugungi ilmga tashna avlodni bilimini mustahkamlash va milliy ona tilimiz ruhida tarbiyalash, Yangi O'zbekiston mutaxassis pedagog kadrlarining dolzarb masalasidir. Buning zahirida o'qituvchi o'z faning yetuk mutaxassisi bo'lish bilan birga o'quvchilarning psixologiyasi bilimdoni bo'lish ham talab etiladi. Shundagini muallim ona tilimizga o'quvchini jalb qila oladigan va uni muhim ekanligini anglatadigan metodika yaratiladi. Yangi pedagogik texnologiyalar o'quvchini, ayniqsa, bitiruvchi sinflar tanlagan yo'nalishi doirasida pedagogik-psixologik yondashilgan holda ona tilimizni muhimlik darajasini oshirish muhimdir.³⁰ O'z tilini anglamagan uning mazmun mohiyatini tushunmay turib har qanday sohada yetuk mutaxassis bo'la olmasligi, til bilish darajasida tez va yuqori natijalarga erishish ham mushkuldir. Har qanday tilning nazariy asosini bilish uchun o'z ona tili grammatikasini yaxshi bilish lozim. Shu kabilarni pedagogik-psixologik texnologiyalar orqali yetkazish o'quvchilar ongida ona tilimizga qiziqish uyg'onadi. Shu kabi psixologik, pedagogik izlanishlar maktablarda darslarni to'g'ri rejalashtirish, tashkillashtirish va o'tkazish dolzarb omillardan biri ekanligini ko'rsatmoqda. o'quvchilarda ona tili fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini o'rttirish, ularning bilim va salohiyatini ongli ravishda O'zlashtirishlariga yordam beradigan, raqobatbardoshligini oshiradigan, mustaqil tafakkur yuritish, topshiriqlarni to'g'ri va dadillik bilan bajara olish ko'nikmalarini rivojlantiradigan o'qitish usullaridan unumli foydalanishda tasavvur va zehning o'rni beqiyos. Bugungi kunda ta'lim olish uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratilganligi barchamizga ma'lum. Tegishli axborot resurslaridan, badiiy va ilmiy adabiyotlardan keng miqyosda, shu o'rinda, qishloq joylarda ham foydalanish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Demak, ko'rib turganimiz, borliq va bilish nazariyalarining mutaxassis olimlarimizning qarshilarini inobatga olib, ta'limda muhim burilish yasay olish darkor. Ta'limda, aynan, ona tili ta'limida bugungi yetuklikka intilayotgan yoshlarni fanga jalb eta olish muhimdir. Bugungi kunda dunyo tillari va IT sohasi rivojlanayotgan bir pallada o'quvchilar ichidan ayrimlarini shu fan sohasiga olib kirish dolzarbdur.³¹ Biz bilamizki, barcha yoshlar xorijiy tilni va boshqa sohalarni o'zlashtirishga kirishmoqda, shu avlodni ona tili ruhida to'g'ri va mukammal

³⁰ Yusupova Sh, G'ozdiyeva O. Ona tili o'qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. -T; "Bayoz" nashriyoti. 2013.

³¹ Ivanov P.I, Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. 2007-6.

tarbiyalamog'imiz muhim. Chunki millatning o'z ona tilisini anglamagan, uning salohiyatini his qilmagan, uning grammatikasini va so'z boyliklarini puxta egallamagan yoshlar boshqa tilni ham mukammal bila olmasligini uqtirishimiz lozim. Ona tilida to'g'ri va ravon muloqot qila oladigan va so'zlardan o'z o'rnida ma'no jilolari bilan to'g'ri qo'llay oladigan o'quvchigini o'zga tilni puxta bilishi mumkinligini amaliy isbotlashimiz lozim. To'g'ri, jamiyatdagi har bir avlodni tilshunos yoki metodist olim qila olasmiz, lekin o'sha harbiyni, axborot texnologiyalari faolini, matematikni til imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishga yokida to'g'ri yozishga o'rgatgan bo'lamiz.

Ana shu muhimlik darajasini oshirish uchun, avvalo, pedagog ona tili darslari uchun belgilangan Ta'lim standarti, ta'lim dasturi, darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovalari va ularning sharxi kabi tushunchalarni bilishi va chuqur anglagan holda dars jarayonlariga tatbiq etishi kerak. Masalan,

Ta'lim standarti – ma'lum fan yuzasidan, ta'limning ma'lum bosqichi (davri)da ta'lim oluvchi o'rganishi, o'zlashtirishi lozim bo'lgan ko'nikmalar jamlanmasi. Oddiyroq aytganda, ta'lim orqali boriladigan manzil. Masalan, o'quvchi o'quv yili oxiriga borib nimalar qila olishi kerakligi ta'lim standartlarida aks etadi. Shuning uchun uni malaka talablari, ta'lim natijalari deb ham nomlashadi.³² Ta'lim standartlari har bir sinf uchun alohida ishlab chiqilishi to'g'ri bo'ladi. O'zbekistonda avvalgi Davlat ta'lim standartlarida har bir sinf kesimida o'quvchilarga malaka talablari qo'yilmagan edi. 4-sinfga, 9-sinfga, 11-sinfga mavjud edi xolos. Shu muammoni hal qilish uchun Milliy o'quv dasturi loyihasi yo'lga qo'yildi. Milliy o'quv dasturi nomi ostida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-11-sinf o'quvchilari uchun barcha fanlardan ta'lim standartlari ishlab chiqilgan. Milliy o'quv dasturi qisman tasdiqlangan bo'lib, hozircha 4-, 5-, 8, 9-, 11-sinflar loyiha darajasida turibdi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi 2025-yildan Milliy o'quv dasturi to'liq joriy qilinishini aytmogda. Dasturning to'liq joriy etilishi ham qaysidir o'rinda o'qituvchiga bog'liq ekanligini kop'rishimiz lozim. Ushbu fikrlarni inobatga olgan holda, pedagog ta'lim standarti, ta'lim dasturi, darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovalari haqidagi ilmiy yangiliklardan boxabar bo'lishi darkor. Demak, har biri bir-birini taqazo qilishini biri ikkinchisidan ajralmasligini tushunib dars tashkil etishi o'rinlidir. Bularning barchasi chambarchas bog'liqlik asosida o'quvchi nutqi, tafakkuri, tasavvuri, intellekti uchun xizmat qilishi shubhasiz. Ana o'shanda bizning kelajagimiz yangi metod va

³² G'ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M, va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 380 b.

texnologiyalar asosida yangi bilimlar egallashi, jahon standartlari bilan tenglasha oladigan avlodni tarbiyalagan bo‘lamiz. Bugungi kun uchun qo‘yilayotgan pedagogik-psixologik talablar ham shundan iboratdir. Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlar amaldagi isbotini topishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa, Oliy ta’limda tahsil olayotgan bo‘lajak ona tili o‘qituvchilariga (bakalavriat ta’limida) yetkazish va maxsus metodika fanlarini o‘rgatish chog‘ida PISA ni ham ona tili grammatikamizni uyg‘unlashtirib dars o‘tishni anglatish muhim. Ana o‘sha yangi darsliklarimizda tasavvuriy hodisalar va uni grammatika bilan ustalik bilan bog‘lash mumkin bo‘lgan o‘rinlar talaygina. Ana o‘sha yangilangan darsliklarimizni tasavvur bilan bog‘lagan holda o‘quvchilarga o‘rgatish kelajakni jahonning rivojlangan davlatlari bilan tenglash aoladigan avlodlarni tarbiyalagan bo‘lamiz. Uni bugundan boshlashimiz darkor. Har bir yangilik ortida bir hikmat borligi kabi darsliklar yangilanishining yangi tamonlari va yangi qirralari ochildi. Uni o‘qituvchilar o‘quvchilarga to‘g‘ri tushuntirishi uchun oliy ta’limdagi bo‘lajak pedagoglarni va maktablarda o‘qituvchilarni qayta tayyorlov tariqasida yangi darsliklarga moslab qayta o‘qitish lozim. Ayrim joylardagi ona tili va adabiyot o‘qituvchilari yangilangan ona tili darsligini o‘quvchiga to‘g‘ri yetkazib bermayapti. Mana shu o‘rinlarda darslik mualliflaridan biri Sh.Tursun qarashlari deya telegram ijtimoiy tarmog‘ida o‘z postlarini yozib qoldirmoqda. Unda, asosan, yangi darsliklarni qay holda o‘quvchiga yetkazish yoki uni foydali tomonlarini sanab o‘tmoqda. Shulardan umumiy xulosa chiqargan holda ona tili darslarini pedagogik-psixologik jihatdan yondashgan holda tsavvur rivoji orqali dars jarayonlarini tashkil etish o‘rinli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedova G.M. Ilg‘or pedogogik ijodkorlik manba – bu pedagogik tajribadir// Ta’lim texnologiyalari. 2010. № 5
2. Yusupova Sh, G‘oziyeva O. Ona tili o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. -T; “Bayoz” nashriyoti. 2013.
3. G‘ulomov A, Qodirov M, Ernazarova M, va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: “Fan va texnologiya”, 2012, 380 b.
4. Ivanov P.I, Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. - T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. 2007-6.
5. Jamolxonov.H Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: «Talqin» nashriyoti. 2005- y. 213- b.